

## KARIYESNI ERTA BOSQICHDA TO'XTATISH

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti  
Stomatologiya yo'nalishi 1 – kurs talabasi*

***Xolmurodova Manzura***

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti*


*Klinik kafedra o'qituvchisi: Axtamova Irodaxon Akbarovna*

**Annotatsiya:** boshlang'ich kariyes, ftorli preparatlardan foydalanish, to'g'ri ovqatlanish, remineralizatsion terapiya, gigiyenani yaxshilash, biorepair, paradontax, tish ipi (floss)

**Kalit so'zlar:** kariyes, emal, demineralizatsiya, remineralizatsiya, gigiyena, ftor preparatlari

Kariyes — tish qattiq to'qimalarining asta-sekin yemirilishi bilan kechadigan patologik jarayon bo'lib, u zamonaviy stomatologiyaning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kariyesning rivojlanishida mikroorganizmlar faoliyati, noto'g'ri ovqatlanish va og'iz bo'shlig'i gigiyenasining yetarli darajada saqlanmasligi muhim rol o'ynaydi.

Ertabosqichda kariyesni aniqlash va davolash uning chuqurlashib borishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega.



Kariyesning dastlabki bosqichi ko'pincha “oq dog” (demineralizatsiya o'chog'i) shaklida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda tish emali yuzasida oqish yoki xira dog' paydo bo'ladi, ammo tish strukturasi hali kavak (defekt) hosil bo'lmaydi.

Bu jarayon quyidagi omillar ta'sirida yuzaga keladi:

- og'iz bo'shlig'ida bakteriyalar faoliyati
- uglevodlarga boy ovqatlarni ko'p iste'mol qilish
- tupurikning himoya funksiyasining pasayishi
- Demineralizatsiya va remineralizatsiya jarayoni

Kariyes rivojlanishining asosida emal tarkibidagi mineral moddalar (kaltsiy va

fosfor)ning yo‘qolishi yotadi. Bu jarayon demineralizatsiya deb ataladi. Agar vaqtida choralar ko‘rilsa, bu jarayonni qaytarish mumkin. Bu remineralizatsiya jarayoni bo‘lib, tish emalining qayta tiklanishiga olib keladi.

Kariyesni erta bosqichda to‘xtatish usullari:

1. Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasini yaxshilash: Tishlarni kuniga kamida 2 marta tozalash kariyesning oldini olishning eng muhim omillaridan biridir. To‘g‘ri gigiyena blyashkani kamaytiradi va bakteriyalar faoliyatini susaytiradi.

2. Ftorli preparatlardan foydalanish: Ftor tish emalini mustahkamlaydi va demineralizatsiyani kamaytiradi. Ftorli tish pastalari, gel va laklar keng qo‘llaniladi.

Kariyesni samarali oldini olish uchun tavsiya etilgan tish pastalari:

Biorepair: 90% stomatologlar tomonidan tavsiya etiladi, emalni tiklovchi tarkibga ega.

**R.O.C.S.:** Kundalik parvarish uchun mos, SLS qo‘shilmagan turlari tavsiya etiladi.

**Paradontax:** O‘tlar asosida tayyorlangan, milklar va tish sog‘lig‘i uchun foydali.

**Dr.Clinic:** Nozik tishlar va milklarni davolaydi, kariesni oldini oladi.

**Synergetic:** Minerallar va vitaminlarga boy, tishni mustahkamlaydi.

**Muhim tavsiyalar:**

Ftor ionlari miqdori **1475 ppm** bo‘lgan pastalarni tanlash samaraliroq.

Kariyesni oldini olish uchun nafaqat pasta, balki tish ipi (floss) va to‘g‘ri ovqatlanish ham muhim.

3. To‘g‘ri ovqatlanish: Shirinliklar va tez parchalanadigan uglevodlarni kamaytirish, kalsiy va fosfoga boy mahsulotlarni ko‘paytirish tavsiya etiladi.

4. Professional profilaktika: Stomatolog tomonidan o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar (tishlarni professional tozalash, ftorlash) kariyesni erta bosqichda to‘xtatishda muhim ahamiyatga ega.

5. Remineralizatsion terapiya: Maxsus vositalar yordamida (kalsiy, fosfat va ftor tutuvchi preparatlar) tish emalini qayta tiklash mumkin. Bu usul ayniqsa boshlang‘ich kariyesda samaralidir.

**Xulosa:** Kariyesni erta bosqichda aniqlash va to‘g‘ri profilaktik choralar ko‘rish orqali tish to‘qimalarini saqlab qolish mumkin. Demineralizatsiya jarayoni qaytariladigan bosqich bo‘lib, o‘z vaqtida remineralizatsiya muolajalari o‘tkazilsa, kariyes rivojlanishi to‘xtatiladi. Shu sababli muntazam stomatologik ko‘rik va og‘iz gigiyenasiga rioya qilish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Borovskiy E.V. Terapevtik stomatologiya. Moskva, 2010.

2. Leus P.A. Kariyesologiya asoslari. Minsk, 2007.

3. Axmedov A.A. Stomatologiya asoslari. Toshkent, 2018.